

## JADIDCHILIK HARAKATI NOMOYANDALARI

Amirxonzoda Saidaxon

*Toshkent shahar, Uchtepa tumani 287-maktab, 10-“A” sinf*

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: جديد jadīd — yangi) – XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O’rta Osiyoda tarqaldi.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e’tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib, ularni shartli ravishda to‘rtga bo‘lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni o‘z ichiga oladi.

Millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari—hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish – siyosiy-ma’rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohasining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o‘z vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari quyidagilar edi:

- Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish
- shariatni isloh qilish
- xalqqa ma’rifat tarqatish
- Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash
- Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament



• keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish

• barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish.

Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlaridan ochilgan madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati, tarqalish joyi va yo‘nalishiga ko‘ra, uchga bo‘linadi:

- Turkiston jadidchiligi
- Buxoro jadidchiligi
- Xiva jadidchiligi.


Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida ushbu insonlar turardi:

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev (Ubaydulla Xo‘jayev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda (Farg‘ona vodiysi), Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (O‘sh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm)



Mahmudxo‘ja Behbudiy – dramaturg, noshir, din va jamoat arbobi. Jadidchilik milliy ma’rifatparvarlik harakatining tarafdori. "Behbudiya kutubxonasi" hamda „Nashriyoti Behbudiya“ faoliyatini yo‘lgan. „Samarqand“ gazetasi va "Oyna" jurnali asoschisi.






Munavvarqori, Abdurashidxonov Munavvar qori — Oʻrta Osiyo jadidchilik harakatining yoʻlboshchisi, XX asr oʻzbek milliy matbuoti va yangi usuldagi milliy maktab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilotchilaridan biri, adib va shoir.



Abdulla Avloniy — XIX asr oxiri XX asr boshidagi oʻzbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri, maʼrifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi.



Abdurauf Fitrat — oʻzbek tarixchisi, filolog, tarjim on, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy oʻzbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, Oʻrta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili, birinchi oʻzbek professori (1926). Jadidchilik milliy maʼrifatparvarlik harakatining tarafdori.





Sadriiddin Ayniy — tojik va o‘zbek sovet yozuvchisi. Shoir, davlat va jamoat arbobi. Sovet davridagi tojik adabiyoti asoschisi. tojik va o‘zbek tillarida ijod qilgan. Tojikiston Fanlar Akademiyasining birinchi prezidenti (1951—1954), O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi faxriy a‘zosi



Fayzulla Ubaydullayevich Xo‘jayev – atoqli davlat va siyosat arbobi, Buxoro jadidchiligining faol ishtirokchisi, „Yosh b uxoroliklar“ partiyasining rahbarlaridan biri. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Nozirlar Kengashi raisi.




Muhammadsharif So‘fizoda (1869–1937) Ma‘rifat parvar ziyoli, shoir Muhammadsharif So‘fizoda O‘zbek madaniyati tarixida yorqin iz qoldirgan zotlardandir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmedov, Sirojiddin; Rajabov, Qahramon (2000-2005). "Jadidchilik". O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. "Jadidizm". Ensiklopedik lug‘at. 1. Toshkent: O‘zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1988. p. 271.





3. "Jadidizm". O'zbek sovet ensiklopediyasi. 4. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1973. 278-279 b.

